

Yashil

IQTISODIYOT
TARAQQIYOT
va

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2
0
2
4

No 7



- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'sratish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinnbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 348 sahifa.

E'lion qilishga 2024-yil 25-iyulda ruxsat etildi.

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinnbosari

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Axmedov Sayfullo Normatovich, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori

Siddiqova Sadoqat G'afforovna, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lif muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TDIU professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d., TSUE professori

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokururaturasi boshqarma boshlig'i o'rinnbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokururaturasi IJQKD boshlig'i

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori

Musayeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori

Cham Tat Huei, (PhD) USCI universiteti professori, Malayziya

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinnbosari

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi

Djudi Smetana, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH

Krissi Lyuis, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH

Ali Konak (Али Күнак), i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya

Glazova Marina Viktorovna, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Editorial board:

Salimov Oqil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Rae Kwon Chung, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

Osman Mesten, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Buzrukhanov Sarvar Khan Munavvar Khanovich, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Durbek Kudratillayevich, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Sayfullo Normatovich CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

Siddikova Sadokat Ghaforovna, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

Khudoykulov Sadirdin Karimovich, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, DSc, Prof., of TSUE

Samadov Askarjon Nishonovich, CSc, Prof., of TSUE

Slizovsky Dimitriy Yegorovich, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

Akhmedov Ikrom Akramovich, DSc, Prof., of TSUE

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli, DSc, Prof., of TSUE

Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

Ochilov Farkhad, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

Eshtayev Alisher Abduganievich, DSc, Prof., of TSUE

Shoira Azimovna Musaeva, professor of SamDu IS Institute

Cham Tat Huei, PhD, professor at USCI University, Malaysia

Akhmedov Javokhir Jamolovich, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

Judy Smetana CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Chrissy Lewis CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Ali Konak DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

Glazova Marina Viktorovna, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, associate professor of TSUE

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, independent researcher of TSUE

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori
Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori
Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti
Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti
Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti
G'afurov Doniyor Orifovich, p.f.f.d., (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali
O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro‘yxatdan
o’tkazilgan.

Muassis: “Ma’rifat-print-media” MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O’zR
Tabiat resurslari vazirligi, O’zR Bosh prokururaturasi huzuridagi IJQK
departamenti.



MUNDARIJA

Avtosanoat korxonalari marketing strategiyasini takomillashtirish yo'llari	16
Qo'ng'irotboy Avezimbetovich Sharipov, Zayniddinova Umida Djalolovna	
Mamlakat raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda maxsus iqtisodiy zonalar omilidan foydalanish istiqbollari	26
Izbosarov Boburjon Baxriddinovich, Abdurasulov Ravshanbek Xotam o'g'li	
Mahalla institutini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning institutsional tahlili	32
Bahriiddinov Viqorjon Akbar o'g'li	
Mamlakatimizda pillachilik biznesini rivojlantirish orqali mahsulot ishlab chiqarish va uni qayta ishlash holatining tahlili	37
Turgunov Odilbek Maripovich	
Etnografik turizmni tashkil etishning xorij tajribasi	41
I. Axmedov	
Xizmatlar sohasining milliy iqtisodiyotdagи rolini tahlil qilishning zamонавиy yondashuvlari	46
Xusanov Murodjon Sunnatullayevich	
Iqtisodiy o'sish tushunchasi va uning rivojlanish tarixi	54
Maksudov Avazbek Ulug'bek o'g'li	
Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni takomillashtirish asosida inson kapitalini rivojlantirish	59
Ubaydullaev G'ayrat Zuvaytovich	
O'zbekistonda aholi bandligini ta'minlashda oilaviy tadbirkorlikning o'rni	65
Bayanova Mavlyuda Djurayevna	
The Effect of Students' Financial Status on Academic Performance in Uzbekistan	70
Alimov Damirjon Odilovich	
Qoraqalpog'iston Respublikasida xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlik faoliyatining o'rni	76
Jusupova Anjim Tansiqaevna	
Insurance Mechanisms in Foreign Trade: Mitigating Risk and Facilitating Global Commerce	82
Sohibjamol Abirkulova	
Nodavlat umumiy o'rta ta'lif maktabning faoliyati samaradorligini aniqlashdainnovatsion usullardan foydalanish	87
Ustadjalilova Xurshida Aliyevna	
Qishloq xo'jaligi korxonalarida asosiy vositalar hisobi va audit bo'yicha xorijiy tajribalar va ulardan respublikamizda foydalanish imkoniyatlari	92
Xojimurodov Zuxriddin Shukurullo o'g'li	
O'zbekiston Respublikasi budgetining shakllanishida egri soliqlarni undirishning fiskal samaradorligi	97
Abdulxayeva Shahnoza Muxammadiyevna Mamlakat sanoatining barqaror rivojlanishida energosamaradorlikning roli	104
J. J. Yaxshilikov	
Сравнительный анализ состояния сферу услуг в регионах Андижанской области	109
Мусабоев Рустам Алихонович	
Hududlarda aholi bandligini oshirish va kambag'allikni qisqartirishda ishlab chiqarish sanoatining o'rni (Qashqadaryo viloyati misolida)	114
Hamdamov Shahzod Ilhom o'g'li, Baxronov Baxriddin Najmiddinovich	
Banklarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyatini takomillashtirish yo'llari	118
Ermatov Utkirbek Baxodirjonovich	



Развитие цифровой экономики в Узбекистане, ее плюсы и минусы Раупова Мухлисахон Ибрахимжон кизи, Мамбетова Мадина Зохид кизи, Алижонова Малика Алижон кизи, Хакимова Нигора Бахтиёрова	122
Investment Management is an Important Factor of Economic Development..... Yuldasheva G. A., Ziyayev Dilshodjon	127
O'zbekistonda moliyaviy texnologiyalar sanoatining rivojlanish istiqbollari..... Rustamov Jasurbek Ravshanbek o'g'li	130
Davlat-xususiy sherikchilik asosidagi loyihalarni moliyalashtirish..... Toyrova Yunus Alakovich	136
Operatsion faoliyatni boshqarishda strategiya tushunchasiga bo'lgan yondashuvlarning shakllanishi..... Dedajanov Baxtiyor Nabijanovich	143
Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlash..... Xusniddinov Yorqinjon Muxiddin o'g'li	148
Budget tashkilotlarida pul mablag'lari nazarat qilishni rivojlantirish yo'llari..... Alimardonov Muxammadi Ibragimovich, Djalilova Malika Shuxratovna	152
QQS ma'murchiligining yevropa tajribasi..... Bisenbayev Sharyar Kuanishbayevich	157
O'zbekistonda soliq yukiga ta'sir etuvchi omillar tahlili	162
Nasimov Ravshanjon Azimovich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida muqobil energiya vositalaridan foydalanib ma'lumot almashinish va iqtisodiy samaradorlikni oshirish masalalari	170
Ashurov Azizbek Ergash o'g'li, Janzakov Bekzot	
Analysis of the theoretical foundations of sustainable economic development at regional level	175
Khudayorova Munira Omonboy kizi	
Soliq ma'murchiligidagi joriy etilgan jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni undirish mehanizmini takomillashtirish yo'llari	182
Muxtorov Zokir Sayfulla o'g'li, Karimov Ilhom Anorboy o'g'li, Homidov Asrorbek Tohirjon o'g'li, Axmedova Shoxista G'ayrat qizi	
Sirdaryo viloyatining investitsiya muhiti zamonaviy rivojlanish tendensiyalari	187
Xolmurotova Diyoraxon Ibragimovna	
Transformatsiyalash jarayonida tijorat banklarining kreditlash faoliyatini rivojlantirishning nazariy asoslari..... Razzoqov Bexzod Gofurovich	191
Modern trends in assessing the impact of industrial development on the environment..... Turg'unov Jasurbek Alimardon o'g'li	196
Pul oqimlarini guruhlash mezonlari bo'yicha tasniflashni kengaytirish	202
Atamurodov Saidmurod Yaxoevich	
Iqlim o'zgarishlari va uning iqtisodiy rivojlanishga ta'sirining ilmiy-nazariy tahlili	208
Ashrafjon Elov	
Soliqlarning iqtisodiy mohiyati va ahamiyati	214
Abramatov Eldor Toshmamatovich, Alimov Abduraxon Alxamiddin o'g'li, Shodmonqulov Temurbek Ulug'bek o'g'li, Nurillayev Jasurbek Davronbekovich	



SOLIQ MA'MURCHILIGIDA JORIY ETILGAN JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN SOLIQLARNI UNDIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

Muxtorov Zokir Sayfulla o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

"Davlat moliyasi va xalqaro moliya" mutaxassisligi magistranti

Karimov Ilhom Anorboy o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

"Davlat moliyasi va xalqaro moliya" mutaxassisligi magistranti

Homidov Asrorbek Tohirjon o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

"Davlat moliyasi va xalqaro moliya" mutaxassisligi magistranti

Axmedova Shoxista G'ayrat qizi

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

"Davlat moliyasi va xalqaro moliya" mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Maqolada mahalliy budjetlar daromad bazasini shakllanishi, unda yer solig'i va mulk solig'ining ahamiyati va ilmiy-amaliy asoslari yoritib berilgan. Mahalliy budjetlar daromadlari barqarorligini ta'minlash imkoniyatlari asoslangan. Yer hamda mulk solig'ining mahalliy budjetlar daromadlarini shakllantirishdagi ahamiyatini oshirish yuzasidan tartib va amaliy tavsiyalar taklif etildi. Bundan tashqari, mahalliy budget daromadlarini oshirish yo'llari bo'yicha tadqiqot olib borilgan bo'lib, mavzu doirasida iqtisodchi olimlarning tadqiqotlari o'rganilib, xulosa va takliflar shakllantirildi.

Kalit so'zlar: yer, yer solig'i, ko'chmas mulk, mahalliy budget, mahalliy budget daromadlari, mahalliy hokimiyat organlari, mahalliy soliqlar, resurs soliqlari, soliq, budget, soliq stavkasi, soliq hisoboti, soliq tushumlari, soliq imtiyozlari.

Abstract: The article describes the formation of the revenue base of local budgets, the importance of land tax and property tax, and the scientific and practical basis. The possibilities of ensuring the stability of local budgets' incomes are based. Procedures and practical recommendations were offered to increase the importance of land and property tax in the formation of local budget revenues. In addition, a study was conducted on ways to increase local budget revenues, studies of economists were studied within the scope of the topic, and conclusions and proposals were formed.

Key words: land, land tax, real estate, local budget, local budget revenues, local authorities, local taxes, resource taxes, tax, budget, tax rate, tax report, tax revenues, tax credits.

Аннотация: В статье описано формирование доходной базы местных бюджетов, значение земельного налога и налога на имущество, а также научно-практическая основа. Обоснованы возможности обеспечения стабильности доходов местных бюджетов. Предложены порядок и практические рекомендации по повышению значения налога на землю и имущество в формировании доходов местных бюджетов. Кроме того, было проведено исследование путей увеличения доходов местных бюджетов, изучены исследования экономистов в рамках темы, сформированы выводы и предложения.

Ключевые слова: земля, земельный налог, недвижимость, местный бюджет, доходы местного бюджета, органы местного самоуправления, местные налоги, ресурсные налоги, налог, бюджет, налоговая ставка, налоговая отчетность, налоговые поступления, налоговые кредиты.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasining bozor iqtisodiyotiga o'tishi sharoitida iqtisodiy salohiyatni rivojlantirish faqat barqaror soliq tizimi mavjud bo'lганда mumkin bo'lib, uning ajralmas elementi sifatida jismoniy shaxslarga soliqlar iqtisodiyotning rivojlanish bosqichlarida davlat aralashuvning iqtisodiy faoliigi zaruriyatini va soliq to'lov-chining soliqlar shaklda ma'lum darajadagi pul mablag'larini to'lovini real imkoniyatlarini muhim tomonlarini



hisobini oladigan budget-soliq siyosatini amalga oshirishni talab qiladi. Jumladan, resurslardan foydalanishda iqtisodiy mexanizmlarga ustuvorlik berilishi orqali ulardan foydalanishni tartibga solish mexanizmi yaratildi va bu jarayon davrga mos ravishda takomillashib bormoqda.

Resurslardan samarali foydalanishga qaratilgan iqtisodiy mexanizm elementlarining eng muhimi – bu, albatta, soliqqa tortishdir. Bu, o‘z navbatida, turli darajadagi budgetlar va budgetdan tashqari fondlarni shakllantirish uchun zarur.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Iqtisodiy nuqtai nazardan, soliq va soliqdan tashqari tushumlarning o‘sishi uchun qo’shimcha zahiralarni topish va jalb qilish nafaqat mahalliy budgetlarni to’ldirish, balki zamonaviy huquqiy makonni shakllantirish, tadbirkorlikni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar, turli ijtimoiy yo’naltirilgan shahar dasturlari va ularni amalga oshirish masalasiadir. Mulk huquqi xususiy mulk bo‘lgan mamlakatlarda xususiy mulk huquqi va yer qiymatining kombinatsiyasi ikkita ijtimoiy xarajatlarni keltirib chiqaradi: yerning (yoki boylikning) qiymati va bu boylikning teng taqsimlanmaganligi, foydalilmagan yerning qiymatini undirish vositalaridan biri soliqdir (Wyatt, 2019). Yer solig‘i - bu obodonlashtirilmagan yerlarning qiymatidan kelib chiqqan holda yer egalaridan olinadigan davriy soliqdir. Yer solig‘i boyliklarga soliq solish va yerdan samarali foydalanishni rag‘batlantirishning tejamkor vositasidir. Ko‘pgina adabiyotlarda nazariy jihatlarga asosiy e’tibor qaratilgan, ammo ularning aksariyati bunday soliqni qanday mukammal joriy qilish mumkinligi haqida batafsil ma’lumotga ega emas (Hughes va boshqa. 2020).

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan Toshkulov (2021) fikricha qishloq xo‘jaligini soliqqa tortish doimiy ravishda isloh qilinmoqda, lekin bu uning mukammalligini kafolatlamaydi. Soliq qonunchiligining beqarorligi, murakkabligi va noaniqligi, investitsiya, innovatsiya va tadbirkorlik faoliyatini rag‘batlantirish uchun soliq mexanizmlaridan kam foydalanish va ishlab chiqarishni kengaytirish soliq tizimining qishloq xo‘jaligida o‘z vazifalarini to‘liqbajarishga imkon bermaydi.

Vlasovaning (2015) fikriga ko‘ra “Mahalliy budgetlarning daromadli salohiyati davlat-xususiy sheriklikni yanada faolroq amalga oshirishni, soliq imtiyozlarini joriy etish va byurokratik jarayonlarni tezlashtirish va soddallashtirish orqali biznes yuritishni iloji boricha osonlashtirishni, noishlab chiqarish xarajatlari ulushini kamaytirishni va ishlab chiqarish xarajatlarini ko‘paytirishni talab qiladi. Natijada mintaqadagi budget siyosati samaradorligining oshishiga olib keladi. Mahalliy budgetlarning daromad salohiyatini oshirish bo‘yicha kompleks qaror uzoq muddatli istiqbolda butun mintaqaga iqtisodiyoti uchun kuchli ijobji ta’sir ko‘rsatadi”.

Seleznev, Dotsenkolarning (2016) fikriga ko‘ra “mahalliy budgetlarning real moliyalashtirish taqchilligi muammosi bilan bog‘liq holda mahalliy budgetlar daromadlarini shakllantirish tizimi -muhim makroiqtisodiy vazifa”, deb hisoblaydilar.

Serebryakova (2017) ta‘kidlaganidek, “Hududlarni moliyaviy ta’minalash mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish tizimini isloh qilishning eng qiyin va dolzarb masalalaridan biri”, deb ta‘kidlaydi.

Suxarev (2020) barcha darajadagi budget daromadlari manbalarini tubdan o‘zgartirish, budget mexanizmini rag‘batlantirishga yo’naltirilgan xarajatlarni samarali faoliyat natijalarni joriy etish tizimini ilgari suradi.

Xudoqulov (2019) o‘z tadqiqotlarida ekonometrik usullar orqali davlat budgeti jami daromadlarining 2018–2023-yillarga mo‘ljallangan prognoz ko‘rsatkichlari aniqlangan, Agzamov (2019) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini 2019–2023-yillar uchun prognoz ko‘rsatkichlari aniqlagan, Pardaev (2018) davlat budgeti daromadlarini prognozlash masalalarini tadqiq etgan, Urmonov (2019) 2018–2020-yillarga mo‘ljallangan yagona soliq to‘loving soliq tushumlari prognoz ko‘rsatkichlari aniqlagan.

Xaydarov (2020) fikricha mahalliy budgetlarning daromad manbalarini ko‘paytirish va viloyatlarda yangi ish o‘rinlarini yaratish uchun xorjiy investorlarni jalb etishni rag‘batlantirish zarur. Buning uchun mamlakat bo‘yicha xorjiy investorlar qanday turdagи tadbirkorlik va tijorat faoliyatini bilan shug‘ullana olmaydigan soha va tarmoqlar ro‘yxati ishlab chiqilib, qolgan barcha soha va tarmoqlarga yashil yo‘l borligi ko‘rsatilish lozim.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mahalliy budgetlar daromad bazasini shakllanishini o‘rganish jarayonida statistik ma’lumotlar va nazariyalarni tahsil qilishda mantiqiy fikrlash, ilmiy kuzatish, tizimli yondashuv, statistik usullar qo’llanildi. Tahsil davomida O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining statistik ma’lumotlaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

So‘nggi yillarda budgetlar daromadlari budgetlar xarajatlariga nisbatan doimiy ravishda kamni tashkil etmoqda. Ayniqsa so‘nggi yillarda ularning orasidagi tafovut sezilarli ravishda farqlanganligini, ya’ni xarajatlarning keskin oshib ketganligini ko‘rshimiz mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan ochiq muloqoti



doirasida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini ta'minlash, shuningdek, tadbirkorlik subyektlarining soliq yukini kamaytirish maqsadida qabul qilingan Farmonda 2022-yil 1-iyuldan bo'sh turgan binolar, foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlari, yashash uchun mo'ljallanmagan inshootlar, shuningdek, tugallanmagan qurilish ob'ektlariga (foydalanilmayotgan ob'ektlar) hamda ushbu ob'ektlar bilan band bo'lgan yer uchastkalariga nisbatan mol-mulk solig'i va yer solig'ining oshirilgan stavkalarini qo'llash, soliq imtiyozlari va preferensiyalarning amal qilishini to'xtatish tartibi (ta'sirchan soliq mexanizmi) bekor qilinganligi qabul qilingan. Bundan tashqari, foydalanilmayotgan ob'ektlar mulkdorlariga nisbatan oshirilgan stavkalarda qo'llanilgan ta'sirchan soliq mexanizmi natijasida hosil bo'lgan mol-mulk solig'i va yer solig'i bo'yicha mavjud soliq qarzi hisobdan chiqarilishi, soliq qarzini undirish bilan bog'liq sud va ijro ishlari tugatilishi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasining "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi Qonuning 3-moddasiga asosan sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini majburiy ijro etish O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi organlarining davlat ijrochilari tomonidan amalga oshirilmoqda. Jismoniy shaxslar bo'yicha jami 2177 nafar soliq to'lovchilarning qo'llanilgan ta'sirchan soliq mexanizm bo'yicha 502,3 mlrd. so'mlik soliq qarzini mol-mulk hisobidan undirish to'g'risidagi sud va soliq organlari qarorlari Majburiy ijro byurosi ish yurituviga olingan. Soliq to'lovchiga berilgan to'lov xabarnoma karsagini taqdim etish to'g'risidagi bildirishnomaga beriladi va soliq organida jismoniy shaxslarga xizmat ko'rsatish bo'limi tomonidan to'lov xabarnoma koreshogini taqdim etiladi.

Soliq qarzini undirish yuzasidan arizani fuqarolik sudiga hamda nusxasi soliq to'lovchiga taqdim etiladi. Fuqarolik sudidan qabul qilingan ariza o'rganib chiqilib sud buyrug'i chiqariladi. Agar arizada kamchiliklar aniqlansa kamchiliklar ko'rsatilgan holda ariza rad etiladi. Rad etilgan ariza soliq organlari tomonidan kamchiliklar bartaraf etilib ariza qayta tayyorlanadi va qaytadan fuqarolik sudiga kiritiladi. Sud buyruqi soliq organlari orqali Majburiy ijro buyurosiga ijro uchun yuboriladi. Sud qarori va ijro varaqasini Majburiy ijroga yuboriladi. Majburiy ijro buyurosni undiruvni soilq to'lovchining mol-mulkiga qaratadi.

Hozirgi kunda soliq qarzi paydo bo'lgandan keyin uch kundan kechiktirilmay soliq organlari tomonidan yuridik shaxslar va yakka tartibdagи tadbirkorlarga soliq qarzini uzish to'g'risidagi talabnomasi yuboriladi, agar mustaqil to'lov topshiriqnomasi bankka taqdim etilmagan bo'lsa, inkasso topshiriqnomasi qo'yiladi. Soliq organining talabnomasiga berilgan sanadan boshlab o'n kalendar kun ichida yuridik shaxs o'z e'tirozlarini bildirishi lozim. E'tiroz bildirilmagan taqdirda tan olingen soliq qarzi sifatida e'tirof etilib, o'n besh kalendar kun ichida soliq qarzi to'lanmagan taqdirda soliq organining qarori bilan qarzdorning mol-mulki xatlovgaga olinadi.

Soliq organlari tomonidan joriy yilning davomida soliq qarzi undirilishini tashkil etish yuzasidan soliq qarzini uzish to'g'risida talabnomalar yuboriladi, yuborilgan talabnomalar asosida qarzdordan soliq qarzi qisqartiladi, soliq organlarining qarzdorning soliq qarzini undirish yuzasidan mol-mulkni xatlash to'g'risida qarori asosida mol-mulklar xatlovgaga olinadi, soliq organlari tomonidan qarzdorlarning bank hisobvaraqlariga inkasso topshiriqnomalari qo'yiladi va inkasso topshiriqnomalari bilan qarzdorlarning soliq qarzi undiriladi, qarzdorning xorijiy valyuta mablag'lari hisobvaraqlari banklariga taqdimnomalar yuboriladi, soliq organlari qarzdorning soliq qarzi undiruvni mol-mulkiga qaratish haqida qarorlari qabul qilinib, Majburiy ijro organlariga yuboriladi, soliq organlari qarori asosida Majburiy ijro organlari tomonidan soliq qarzi undiriladi, majburiy ijro organlari tomonidan qarzdorning soliq qarzini undirish imkoniyati yo'qligi sababli soliq organlari qarori ijjosiz qaytariladi, soliq organlari tomonidan qarzdorning soliq qarzini to'lovga qobiliyatsizlik, deb topish to'g'risida sudsiga arizalar kiritiladi, sud qarorlari asosida qarzdorning soliq qarzi soliq organlari qarorlari bilan hisobdan chiqariladi, tugatish jarayonida qarzdorning soliq qarzi undiriladi va subsidiar javobgarlik assosida qarzdorning soliq qarzini korxona rahbari, ta'sischi (muassisalarining shaxsiy mol-mulki hisobidan undirish to'g'risida sudsiga arizalar kiritiladi).

Jismoniy shaxslar yakka tartibdagи tadbirkor sifatida 84 ta faoliyat turi bo'yicha davlat ro'yxatidan o'tib, ushbu faoliyat turlari bilan shug'ullanishlari mumkin³. Yakka tartibdagи tadbirkorlar tomonidan tovar aylanmasi yuz million so'mgacha qat'iy belgilangan miqdordagi daromad solig'i, yuz million so'mdan bir milliard so'mgacha aylanmadan olinadigan soliq, bir milliard so'mdan oshganda umumbelgilangan tartibda foya va QQS to'laydi. Yakka tartibdagи tadbirkorlar tomonidan to'lanadigan qatiy belgilangan soliqlar Soliq kodeksi bilan belgilanadi.

Yakka tartibdagи tadbirkorlar tomonidan ijtimoiy soliqni kalendar oyda ishlagan kunlari sonidan qat'i nazar, yakka tartibdagи tadbirkorlar tomonidan oyiga bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan kam bo'Imagan miqdorda, yakka tartibdagи tadbirkor bilan mehnat munosabatlari bo'lgan jismoniy shaxslar tomonidan oyiga bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi miqdorida va faoliyatni yuridik shaxs tashkil etmagan holda, oilaviy tadbirkorlik shaklida amalga oshiruvchi oila a'zolari tomonidan yakka tartibdagи tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tgan oila a'zosi tomonidan oyiga bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan kam bo'Imagan miqdorda hamda oilaning boshqa a'zolari tomonidan (bundan o'n sakkiz yoshga to'Imaganlar mustasno) oyiga bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi miqdorida, shuningdek, qishloq tumanlarida ro'yxatdan o'tgan va faoliyatini amalga oshirayotgan "Hunarmand" uyushmasi a'zosi bo'lgan hunarmandchilik faoliyati subyektlari tomonidan o'z faoliyatining dastlabki ikki yilida -oyiga bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi miqdorida majburiy tartibda to'lanadi.



O'zbekiston Respublikasi davlat organlari va boshqa tashkilotlar tomonidan chet davlatlarda tashkil etilgan (ochilgan) savdo uylarida, vakolatxonalarda, tashkilotlarda ishlayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, shuningdek, ishlamaydigan eri (xotini) uchun soliq to'lovini amalga oshiruvchi ishlayotgan fuqarolar tomonidan yiliga bazaviy hisoblash miqdorining kamida bir baravari miqdorida ixtiyoriy tartibda, "Hunarmand" uyushmasining a'zosi bo'lganhunarmandchilik faoliyati subyektlari va "Usta-shogird" makteblari o'quvchilari – ular yigirma besh yoshga to'lguniga qadar ishlagan davrda, shuningdek, soliq to'lovchilar tomonidan esa majburiy tartibda to'lanadi.

Dehqon xo'jaliklari, shuningdek, maydoni to'rt sotixdan kam bo'limgan dehqon xo'jaligida, tomorqa yer uchastkasida band bo'lgan yoki ushbu maydonda qoramol yoxud ellik boshdan kam bo'limgan xonaki parranda parvarishlayotgan jismoniy shaxslar. Bunda dehqon xo'jaligi rahbari soliqni majburiy tartibda to'laydi, boshqa a'zolari va ko'rsatilgan jismoniy shaxslar esa ixtiyoriy asosda to'laydi. Yangi ro'yxatdan o'tgan yakka tartibdagi tadbirkorlar va yuridik shaxs tashkil etmagan holda oilaviy tadbirkorlik shaklidagi faoliyatni amalga oshiruvchi oila a'zolari tomonidan soliqni to'lash ular yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazilgan oydan keyingi oydan e'tiboran amalga oshiriladi.

Yer solig'i stavkasini xisoblab chiqarish tartibi bo'yicha qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallanmagan yerlar bo'yicha bazaviy soliq stavkalari respublika hududlari kesimida 1 hektar uchun mutlaq o'lchamda Soliq kodeksi bilan belgilanadi. Soliq stavkalaringin aniq miqdori Qoraqlapog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va viloyatlar xalq deputatlari Kengashlari 0,5 dan 2,0 gacha bo'lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni qo'llagan holda tuman va shaharlar kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab, soliq stavkalari belgilaydi va tumanlar va shaharlar xalq deputatlari Kengashlari belgilangan soliq stavkalariiga 0,7 dan 3,0 gacha bo'lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni ularning hududlarida joylashgan daha, massiv, mahalla, ko'cha kesimida belgilaydi va ushbu tartibda aniqlanadi.

Misol uchun Toshkent shaxrinining Yashnabod tumani "Olmos" MFYga tuman Xalq deputatlari kengashi tomonidan 0,7 kamaytiruvchi koeffitsiyent qo'llanilishi natijasida soliq stavkasi 29,0 mln. so'mdan 14.4 mln. so'mga kamaytirilgan. 2019-yilgi soliq siyosati konsepsiyasida yakka tartibdagi tadbirkorlarning o'tgan yilyakunlari bo'yicha yillik yoki joriy yil davomidagi aylanmasi (yalpi tushumi), 100mln.so'mgacha bo'lganda qat'iy belgilangan soliqni, 100mln.so'mdan 1mlrd.so'mgacha bo'lganda yakka tartibdagi tadbirkorlik maqomini saqlab qolgan holda yagona soliq to'lovini, 1 mlrd.so'mdan oshganda yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatini to'xtatib, yuridik shaxs sifatida qayta ro'yxatdan o'tgan holda umumbelgilangan soliqlarni to'lashlari nazarda tutilmoqda.

2019-yildan boshlib, 100mln.so'mgacha tovar aylanmasini amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun amaldagi qat'iy soliq stavkasi 20-35 foizgacha kamaytirilgan holda qat'iy summalarda qat'iy belgilangan soliq joriy etilmoqda. Masalan, Toshkent shahrida chakana savdo faoliyatini amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkor 2018-yilda har oyda eng kam ish haqining 7 baravari miqdorida ya'ni 1205,6 ming. so'm qat'iy belgilangan soliq to'lovini amalga oshirib kelayotgan bo'lsa, 2019-yildan boshlab, har oyda 800 ming so'm miqdorida (33 foizga kamaygan) qat'iy summada qat'iy soliq to'lovini amalga oshirishi belgilanmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Qarzdorning mol-mulki va boshqa aktivlari mavjud emasligi sababli soliq qarzini undirish imkoniyati bo'limganligi sababli Majburiy ijro byurosi tomonidan soliq organlari qarorlari qaytarilganda, soliq organi tomonidan qarzdorni to'lovga qobiliyatsiz deb topish to'g'risida sudga ariza kiritiladi. Soliq to'lovchilarni tugatish jarayonida qarzdorning barcha majburiyatları jamlanib, mol-mulk va daromadlarni aniqlash ishlari olib boriladi. Soliq qarzi va boshqa majburiyatları uzishga qarzdorning mol-mulkulari va boshqa aktivlari yetarli bo'lmasa, to'lanmasdan qolgan soliq qarzi umidsiz deb topiladi hamda sud qarori bilan qarzor faoliyati tugatiladi va soliq qarzi hisobdan chiqariladi.

Yuridik shaxsning mol-mulkulari soliq qarzini qoplashga yetarli bo'limgan taqdirda, soliq organi qoplanmagan soliq qarzini korxonaning rahbari, ta'sischi (muassis)lari shaxsiy mulkidan undirish yuzasidan sudga ariza kiritiladi. Shundan so'ng, sud qarori asosida korxonaning soliq qarzini rahbari, ta'sischi (muassis)lari shaxsiy mulkidan undirish ishlari Majburiy ijro byurosi tomonidan amalga oshiriladi. Ijro harakatlarini olib borish davrida rahbar, ta'sischi (muassis)larning ish haqi daromadlariga qaratish, ularning O'zbekiston Respublikasi hududidan chetga chiqishiga taqiq solish kabi majburiy undiruv choralarini qo'llanilishi mumkin.

Mahalliy budjetlarning daromadlarini barqarorlashtirish jarayonida soliqlarning ahamiyatini oshirish hamda mahalliy budjet daromadlari tarkibini tahlil qilish natijasida quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Hozirgi kunda mahalliy budjetga biriktirilgan daromadlar turlari shuningdek qonunchilik asosida mahalliy soliqlar ro'yxatini kengaytirish maqsadga muvofiq; Mahalliy budjet daromadlari barqarorligini ta'minlash maqsadida umumdaylat soliqlaridan ajratmalar miqdorlarini har yili qayta ko'rib o'zgartirish kiritmasdan, hech bo'limganda 3 yilda bir marta o'zgartirish kiritish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Bu esa o'z navbatida mahalliy budjet daromadlari barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Cathy Hughes, Sarah Sayce, Pete Wyatt (2020) Implementing a land value tax: Considerations on moving from theory to practice. Land Use Policy February. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S026483771931570>.
2. Peter Wyatt (2019) From a property taxto a land tax –who wins, who loses?. Land Use Policy31 August. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0264837719307975>. Аззамов А.Т. (2019).
3. Жисмоний шахсларни солиққа тортиш амалиётини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. Б.17-22. Власова Ю.А., Абрамова А.И. (2015).
4. Проблемы укрепления доходного потенциала региональных бюджетов в россии на примере калужской области// Креативная экономика. Т. 9. № 10. С.1255-1276. Селезнев А., Доценко Н. (2016).
5. Доходный потенциал местных бюджетов и его общегосударственное значение // Экономист. № 9.– С. 12-22. Серебрякова О.В. (2017).
6. Финансовая стабильность муниципальных образований как приоритет в развитии бюджетной и налоговой политики на местном уровне // Региональная экономика: теория и практика. № 11.– С. 126-131. Худойкулов С.К. (2019).
7. Солиқ тушумларини прогноз қилиш методологиясини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари доктори (DcS) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси автореферати. Б. 14-16; 20-21; 28-29. Хайдаров Н.Х.
8. "Маҳаллий бюджетлар: муаммо ва инновацион ечимлар". "Ўзбекистон статистика ахборотномаси" илмий журнали. 2-сон.J.Maxmadustov. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni undirish mexanizmini takomillashtirish: (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferatি.–T.: 2023.

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 7

© Materiallar ko'chirib bosinganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosingan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiylar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

